



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

771-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda PF–226-sonli Farmoni, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 27-dekabrda 628-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda PF–226-sonli Farmonini, shu haqidagi viloyat hokimining 2024-yil 27-dekabrda 628-6-0-Q/24-sonli qarorini tumanda ijrosi ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda PF–226-sonli Farmoni shu haqidagi viloyat hokimining, 2024-yil 27-dekabrda 628-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvarda “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–18-son Farmoniga muvofiqlashtirilishi;

sport maktablari xodimlarining bazaviy tarif stavkasiga ustamalar to‘lab borish tartibini takomillashtirishi;

sport maydonchalari barpo etiladigan mahallalarni aholi tomonidan ovoz berish yo‘li bilan aniqlash tartibini belgilashi;

sport maydonchalarini barpo etish va ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini takomillashtirishi;

yoshlar siyosati va sport sohadagi ayrim farmon va qarorlardan eskirgan va takrorlanuvchi normalarni chiqarib tashlash hamda huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish ko‘zda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov